



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	



O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Mamanov Alisher Umbarovich

Budjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti bosh mutaxassisi

Mustaqil izlanuvchi

ORCID: 0009-0005-0374-0447

E-mail: mamanovalisher362@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida budjet ochiqqligini ta'minlashga qaratilgan normativ-huquqiy bazaning evolyutsiyasi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mustaqillikdan keyingi davrda qabul qilingan asosiy qonunlar, Prezident farmon va qarorlari, shuningdek xalqaro moliya institutlari tomonidan ishlab chiqilgan fiskal shaffoflik standartlarining milliy qonunchilikka integratsiyalashuvi o'rganiladi. Tahlil natijalari O'zbekistonda budjet ochiqqligi bo'yicha normativ islohotlar izchil ravishda amalga oshirilganini, biroq amaliy ijro va jamoatchilik ishtiroki darajasida ayrim institutsional bo'shliqlar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ochiq budjet indeksi, budjet ochiqligi tashabbuslari, Xalqaro valyuta jamg'armasi, jamoatchilik ishtiroki.

Abstract. This article analyzes the evolution and development stages of the legal framework aimed at ensuring budget transparency in the Republic of Uzbekistan. The study examines key laws, presidential decrees and resolutions adopted since independence, as well as the integration of international fiscal transparency standards into national legislation. The findings indicate that Uzbekistan has made consistent progress in establishing a formal framework for budget openness, while certain institutional gaps remain in practical implementation and public participation mechanisms.

Key words: open budget index, budget openness initiatives, International Monetary Fund, public participation.

Аннотация. В статье анализируются эволюция и этапы развития нормативно-правовой базы, направленной на обеспечение открытости бюджета в Республике Узбекистан. Рассматриваются основные законы, указы и постановления Президента, а также процесс интеграции международных стандартов фискальной прозрачности в национальное законодательство. Результаты исследования показывают, что в Узбекистане сформирована последовательная нормативная основа бюджетной открытости, однако сохраняются институциональные проблемы в сфере практической реализации и участия общественности.

Ключевые слова: индекс открытости бюджета, инициативы открытости бюджета, Международный валютный фонд, участие общественности.

KIRISH

Davlat budjetining ochiqqligi va shaffofligi demokratik boshqaruvning ajralmas qismi hisoblanadi. U fuqarolar uchun davlat moliyaviy siyosatining maqsad va natijalari to'g'risida to'liq tasavvur hosil qilish, mansabdor shaxslarning javobgarligini oshirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida budjet ochiqqligi bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, ushbu yo'nalishdagi qonunchilikning shakllanishi va evolyutsiyasi murakkab hamda bosqichma-bosqich jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida budjet ochiqqligini ta'minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarning rivojlanish bosqichlari, ularning xalqaro standartlarga mosligi, amaliy tatbiqi hamda mavjud kamchiliklar va imkoniyatlar tahlil qilinadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodchi olimlar G. Samandarova va U. Pardayev o'z ilmiy ishlarida O'zbekistonda budget ochiqligi va shaffofligiga oid normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi 2018-yildan boshlab amalga oshirilganini ta'kidlab o'tadi [1]. Ularning fikriga ko'ra, bu davr mamlakatning fiskal boshqaruvida muhim burilish nuqtasi bo'lib, undan avvalgi yillarda budget jarayonida jamoatchilikka axborot berish va hisobdorlikni ta'minlashning tizimli mexanizmlari mavjud emas edi.

Bundan tashqari, olimlarning qayd etishicha, 2019-yilda o'rta muddatli makroiqtisodiy va fiskal prognozlar to'plamining taqdim etilishi, shuningdek hukumat e'tiborini talab qiladigan fiskal xatarlarning baholanishi, 2020-yilgi Davlat budgetining Prezident qarori bilan emas, balki qonun orqali qabul qilinganligi budget jarayonida O'zbekiston parlamentining o'sib borayotgan rolini ko'rsatib berdi [2].

Budget ochiqligida fuqarolarning ishtiroki masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlarga e'tibor qaratilsa, M. Sharapova O'zbekistonda tashabbusli budjetlashtirish jarayonini shartli ravishda 2019–2020-yillarda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ilk bosqich va 2021-yildan keyingi davrni tashabbusli budget jarayonining ikkinchi (takomillashtirilgan) bosqichi sifatida ta'kidlaydi [3].

Yana bir iqtisodchi olim I. Jumaniyozov ham tashabbusli budget jarayonida fuqarolarning ishtirokiga alohida e'tibor qaratib, tashabbusli budjetni aholining hayotiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy va iqtisodiy siyosat hamda ustuvorliklarni amalga oshirish uchun vositalardan biri, degan xulosaga keladi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada O'zbekiston Respublikasida budget ochiqligini ta'minlashga doir normativ-huquqiy bazaning shakllanishi, evolyutsiyasi va xalqaro standartlarga moslashuvi o'rganiladi. Normativ-huquqiy tahlil orqali mustaqillikdan bugungi kunga qadar qabul qilingan qonunlar, Prezident qarorlari va budget to'g'risidagi yillik hujjatlar tizimli ravishda o'rganiladi. Solishtirma tahlil orqali O'zbekiston tajribasi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ), Xalqaro budget hamkorligi kabi xalqaro tashkilotlar standartlari bilan qiyoslanadi. Bu budget ochiqligi bo'yicha milliy yondashuvning xalqaro mezonlarga yaqinlashuv darajasini baholashga xizmat qildi.

Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekiston Respublikasining rasmiy hujjatlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, budget monitoringi bo'yicha ochiq ma'lumotlar hamda ilmiy manbalar tashkil qildi. Metodologik yondashuvlarning kombinatsiyasi budget ochiqligining evolyutsion xarakterini, institutsional o'zgarishlarni va xalqaro standartlarga moslashuv jarayonini yaxlit baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Biz mamlakatimizda Ochiq budget indeksi so'rovnomalarida baholanadigan indikatorlarning xalqaro standartlarga mos joriy etilishi talablarining qonunchiligimizda mustahkamlanish evolyutsiyalarini ko'rib chiqamiz.

Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son¹ qarorda belgilangan vazifalarning ijrosi asnosida davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish bo'yicha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, umuman olganda, ochiqlik sohasidagi katta qadamlardan biriga aylandi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari hamda 2020–2021-yillarga budget mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086-son² qarorda 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi hamda konsolidatsiyalashgan budjetning jamlanma parametrlarining 2020–2021-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlanishini o'rta muddatli budjetga o'tish uchun dastlabki qadamlardan biri sifatida e'tirof etish mumkin. Shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalarining daromadlari va xarajatlari ham ushbu hujjatda batafsil ko'rsatildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi "Budjet ma'lumotlarining ochiqligini va budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-son³ qarorga ko'ra, 2020-yildan boshlab Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari to'g'risidagi axborotlar batafsil bayon etilgan, ilg'or xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan qonun bilan tasdiqlanishi belgilandi hamda davlat budjetining qonun bilan tasdiqlanish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Yuqorida sanab o'tilgan qonunchilikdagi o'zgarishlarning har biri Xalqaro valyuta jamg'armasining "Fiskal shaffoflik kodeksi" [5] tamoyillariga mos keladigan amaliyotlarni joriy etishga xizmat qiladi.

1 <https://www.lex.uz/docs/-3107036>

2 <https://lex.uz/ru/docs/-4131684>

3 <https://lex.uz/docs/-3879197>



Budjet ochiqligi borasida faoliyat yuritayotgan yetakchi tashkilotlardan biri bo'lgan Xalqaro budjet hamkorligi tashkiloti bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish va uning tashabbuslarida ishtirok etish bo'yicha amaliy harakatlar yo'lga qo'yildi hamda bu jarayon qonunchilikda o'z aksini topdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi "Budjet ma'lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-son⁴ qarorda 2020-yildan boshlab ushbu tashkilotning Ochiq budjet indeksida ishtirok etishni ta'minlash maqsadida "yo'l xaritasi"ni tasdiqlash belgilandi. Ushbu indeksda O'zbekistonning o'rnini aks ettirish bo'yicha Oliy Majlis Senatida doimiy ishlar olib borilmoqda [6]. Shuningdek, bu borada Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan xorijiy ekspertlar bilan hamkorlikda budjet jarayonining shaffofligini oshirishga qaratilgan seminarlar tashkil etilmoqda [7].

Budjet ochiqligini ta'minlashda yana bir muhim dastur Davlat xarajatlari va moliyaviy hisobdorlikni baholash bo'yicha xalqaro tashabbus (PEFA) hisoblanadi. Ushbu tashabbus davlat moliyasini boshqarish samaradorligi va budjet-soliq ma'lumotlari shaffofligini baholashga qaratilgan metodologik tizimdir. PEFA metodologiyasi Budjet loyihasi, Budjet qonuni, Budjetga o'zgartirishlar kiritish, Budjet ijrosi bo'yicha dastlabki hisobot hamda Fuqarolar uchun budjet nashrlari kabi budjet hujjatlarini tayyorlashda tayaniladigan asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi "2025 — 2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 210-son⁵ qarori bilan PEFA metodologiyasining 10.3-bandida nazarda tutilgan shartli majburiyatlar va boshqa fiskal xatarlar, 13.3-bandida qarzni boshqarish strategiyasi, 7.1-bandida transfertlarni taqsimlash tizimi, 16.3-bandida strategik rejalar va o'rta muddatli budjetlarning o'zaro muvofiqligi kabi indikatorlar davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish doirasida baholanishi qonuniy jihatdan mustahkamlandi. Umuman olganda, PEFA metodologiyasi doirasida sifat va miqdoriy ma'lumotlarning katta hajmini har tomonlama tahlil qilish hisobotlarning shaffoflik darajasini xolisona baholash imkonini beradi. Olingan natijalar davlat moliyasini boshqarish tizimining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, uni takomillashtirish rejalarini ishlab chiqish hamda muntazam monitoring tizimini yo'lga qo'yish imkonini yaratadi.

Keyingi o'rinda budjet ochiqligini o'lchashda foydalaniladigan standartlardan biri Milliy hisoblar tizimi hisoblanadi. Hozirda Milliy hisoblar tizimining 2008-yilgi talqini (MHT-2008) amalda qo'llanilmoqda. MHT-2008 davlat moliyasiga oid makroiqtisodiy ma'lumotlarning yagona xalqaro standartlar asosida shakllantirilishini nazarda tutadi. O'zbekistonda 2013-yildan boshlab xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda MHT-2008ni joriy etish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-son⁶ qaror bilan kuzatilmaydigan iqtisodiyot bo'yicha statistikani takomillashtirish, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-fevraldagi "Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 100-son⁷ qarori bilan kuzatilmaydigan iqtisodiyot bo'yicha qo'shilgan qiymat hajmi va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini choraklik baholash, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-dekabrda "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-246-son⁸ Farmon bilan esa 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotga nisbatan kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushini 1,3 baravarga qisqartirish maqsadlari normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlandi.

Budjet ochiqligi sohasida tayaniladigan yana bir xalqaro standartlar to'plami Davlat sektorida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari hisoblanadi. Ushbu standartlar moliyaviy hisobotni shakllantirishda jahonning ilg'or amaliyotlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan talablar hamda ularni davlat sektorida qo'llash bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi "Budjet ma'lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-son⁹ qarorda Davlat sektorida xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IPSAS) uyg'unlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash belgilandi. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi "2020 — 2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 506-son¹⁰ qarori bilan davlat sektorida budjet hisobi va moliyaviy hisobot tizimini bosqichma-bosqich IPSASga moslashtirish ustuvor vazifa etib belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-357-

4 <https://lex.uz/docs/-3879197>

5 <https://lex.uz/docs/-7469803>

6 <https://lex.uz/docs/-4926736>

7 <https://lex.uz/uz/docs/-6815461>

8 <https://lex.uz/uz/docs/-7897630>

9 <https://lex.uz/docs/-3879197>

10 <https://lex.uz/docs/-4966572>



son¹¹ qarorda esa Davlat sektorida xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini tatbiq etish maqsadida “Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi 2.0”ni joriy etish belgilab qo’yildi. Shuningdek, bir qator budjet hisobi standartlari xalqaro talablarga moslashtirildi va yangi standartlar qabul qilindi.

So’nggi yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirishda mintaqaviy hamkorlik va o’zaro o’rganishga asoslangan tashabbuslarning ahamiyati ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, Davlat moliyasini boshqarishda o’zaro o’rganish va tajriba almashish hamjamiyati (PEMPAL) Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlarida budjet ochiqchiligi, fiskal shaffoflik va institutsional nazorat mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim professional platforma sifatida namoyon bo’lmoqda. Ushbu hamjamiyat donorlik moliyalashtirishga tayanmagan holda, teng huquqli davlat organlari o’rtasida tajriba almashish va bilim tarqatish mexanizmlariga asoslanadi.

PEMPAL faoliyati asosan budjetlashtirish, g’aznachilik va ichki audit yo’nalishlarini qamrab oladi. Budjet yo’nalishida natijaga yo’naltirilgan va dasturiy-maqsadli budjetlashtirishni joriy etish, shuningdek budjet hujjatlarining ochiqchiligi oshirish masalalariga ustuvor ahamiyat beriladi. G’aznachilik yo’nalishida yagona g’aznachilik hisobi, likvidlikni boshqarish hamda fiskal xatarlarni monitoring qilish masalalari chuqur o’rganiladi. Ichki audit yo’nalishida esa riskka asoslangan audit tizimlarini rivojlantirish, ichki nazorat mexanizmlarini mustahkamlash va korrupsiyaga qarshi institutsional choralarni kuchaytirish masalalari muhim o’rin egallaydi.

So’nggi o’n yilliklarda fiskal shaffoflikni ta’minlash va jamoatchilikni budjet jarayoniga faol jalb etish masalalari davlat moliyasini boshqarish sohasidagi ustuvor yo’nalishlardan biriga aylandi. Ushbu jarayonda Fiskal shaffoflikni ta’minlash bo’yicha global tashabbus (GIFT) muhim xalqaro platforma sifatida shakllandi. GIFT fiskal shaffoflikni nafaqat axborot ochiqchiligi, balki fuqarolarning budjet qarorlarini qabul qilish jarayonidagi mazmunli ishtirokini ta’minlash orqali rivojlantirishni maqsad qiladi.

Xalqaro oliy audit organlari tashkiloti (INTOSAI) 1953-yilda tashkil etilgan bo’lib, u mustaqil nodavlat tuzilma hisoblanadi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi huzurida maslahat maqomiga ega. Tashkilotga 195 ta oliy moliyaviy nazorat organlari a’zo. INTOSAI tomonidan ishlab chiqilgan audit tamoyillarida budjet ma’lumotlarining ochiqchiligi va shaffofligi, shuningdek audit natijalarini parlament va jamoatchilikka taqdim etish zarurligi alohida ta’kidlangan.

O’zbekistonda ham INTOSAlga a’zo bo’lish va xalqaro standartlarni joriy etish bo’yicha izchil ishlar amalga oshirildi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O’zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5729-son¹² Farmon va 2021-yil 27-avgustdagi “Davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6300-son¹³ Farmonlarga muvofiq, O’zbekiston Respublikasi Hisob palatasining INTOSAlga a’zo bo’lishi, ISSAI standartlarini joriy etish va kadrlar salohiyatini oshirish bo’yicha vazifalar belgilandi. Natijada, INTOSAI boshqaruv kengashining 2021-yil 23-noyabrda bo’lib o’tgan 75-sessiyasida O’zbekiston Respublikasi Hisob palatasi ushbu tashkilotga to’laqonli a’zo sifatida qabul qilindi va bu qaror rasman e’lon qilindi (1-jadval).

1-jadval. O’zbekistonda budjet ochiqchiligi qonunchiligining rivojlanish bosqichlari¹⁴

Bosqich	Davr	Asosiy xususiyat	Huquqiy asos
I bosqich	1991–2016-yillar	Budjet ma’lumotlari yopiq, jamoatchilik ishtiroki cheklangan	Alohida yillik qarorlar
II bosqich	2017–2018-yillar	Ochiqlik siyosiy ustuvorlikka aylanishi	07.02.2017 yildagi PF-4947-son Prezident Farmoni, 22.08.2018 yildagi PQ-3917-son Prezident qarori
III bosqich	2019–2021-yillar	Parlament rolining kuchayishi, o’rta muddatli budjet	26.12.2018 yildagi PQ-4086-son Prezident Qarori, Har yillik Budjet qonunlari
IV bosqich	2022-yildan–hozirgacha	Xalqaro standartlar (PEFA, IPSAS, OBS) integratsiyasi	22.08.2022 yildagi PQ-357-son Prezident Qarori, 08.04.2025 yildagi 210-son Vazirlar Mahkamasi qarori

11 <https://lex.uz/docs/-6166539>

12 <https://lex.uz/docs/-4355387>

13 <https://lex.uz/docs/-5607471>

14 Muallif tomonidan tayyorlangan



Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekistonda budget ochiqqligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik bazasi bosqichma-bosqich va izchil ravishda rivojlangan. Birinchi bosqichda (1991–2016-yillar) budget jarayoni asosan ijro hokimiyati doirasida shakllanib, jamoatchilik uchun ochiq axborot va ishtirok mexanizmlari cheklangan edi.

Ikkinchi bosqichda (2017–2018-yillar) budget ochiqqligi davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishiga aylanishi natijasida ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlashga qaratilgan normativ-huquqiy asoslar shakllana boshladi. Ushbu davrni budget jarayonida institutsional burilish nuqtasi sifatida tavsiflash mumkin.

Uchinchi bosqichda (2019–2021-yillar) davlat budgetining qonun orqali tasdiqlanishi va budgetni o'rta muddatli rejalashtirishga o'tilishi parlament nazoratining kuchayishiga hamda fiskal shaffoflikning institutsional jihatdan mustahkamlanishiga xizmat qildi.

To'rtinchi bosqich (2022-yildan hozirgi davrgacha) esa budget ochiqqligi sohasida xalqaro standartlar va baholash mexanizmlarini (PEFA, IPSAS, XVJ standartlari va hokazo) milliy amaliyotga integratsiya qilish bilan xarakterlanadi. Mazkur bosqichda normativ ochiqlik darajasi sezilarli darajada oshgan bo'lsa-da, uning amaliy ijrosi va jamoatchilik ishtirokini chuqurlashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida budget ochiqqligini ta'minlashga qaratilgan normativ-huquqiy baza so'nggi yillarda bosqichma-bosqich va tizimli ravishda rivojlandi. Xususan, 2017-yildan keyingi davrda davlat budgetini qonun orqali tasdiqlash amaliyotining joriy etilishi, o'rta muddatli fiskal rejalashtirishga o'tish, davlat maqsadli jamg'armalari va fiskal xatarlar bo'yicha axborotlarning oshkor qilinishi xalqaro fiskal shaffoflik standartlariga yaqinlashuvni ta'minladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda budget ochiqqligi bo'yicha huquqiy asoslar shakllangan bo'lsa-da, keyingi bosqichda ushbu normalarning amaliy samaradorligini oshirish, Ochiq budget indeksi indikatorlari bilan bevosita bog'liq mexanizmlarni kuchaytirish hamda jamoatchilik nazorati institutlarini rivojlantirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Ushbu yo'nalishdagi islohotlar fiskal boshqaruv sifatini oshirish va davlat moliyasining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Samandarova, G. (2021) Problems with budget transparency in Uzbekistan. International Journal For Innovative Engineering and Management Research Volume 10, Issue 10, Pages: 61-69
- Samandarova, G. (2021). O'zbekistonda byudjet ochiqqligini ta'minlashni takomillashtirish. Jamiyat Va Innovatsiyalar, 2(5/S), 77–82. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5/S-p77-82>
- Sharapova M. UMUMTA'LIM MAKTABLARINI MOLIALASHTIRISHDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHDAN FOYDALANISHNING MUHIM JIHLATLARI //FINANCE, MONEY AND CREDIT. – 2025. – T. 5. – C. 413-417.
- Inomjon Jumaniyazov, & Munira Qayumova (2023). Fuqarolik ishtirokidagi "Tashabbusli byudjet" turlari va uni O'zbekistonda qo'llash dolzarbligi. Science and Education, 4 (6), 853-859.
- The Fiscal Transparency Code 2019 <https://www.imf.org/external/np/fad/trans/Code2019.pdf>
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 27.08.2021 yildagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasining 2020-yildagi va 2021-yilning birinchi yarim yilligidagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti haqida" SQ-381-IV-son qarori // <https://lex.uz/docs/-5621021>
- Budget ma'lumotlari va budget jarayonining ochiqlik darajasini oshirish bo'yicha onlayn-seminar bo'lib o'tdi <https://gov.uz/oz/imv/news/view/56407>
- Pulatov D. Issues in development of state financial control in Uzbekistan //Perspectives of Innovations, Economics, and Business. – 2009. – T. 2. – C. 49-50.
- Pulatov D., Abdiyev M. RAQAMLI PUL TIZIMINING KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI //MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT. – 2026. – T. 4. – №. 1.
- Pulatov D., Son E. MEDIUM TERM BUDGETING AS A LINK BETWEEN WIDE FISCAL POLICY PURPOSES AND BUDGETING //YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATION G'OYA VA YECHIMLAR. – 2025. – T. 1. – №. 11. – C. 22-25.
- Pulatov D., Kaxxarova G. XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA DAVLAT AKTIVLARI BO'YICHA INTERAKTIV MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISH ORQALI BUDJET XARAJATLARINI TAHLIL QILISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH //MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT. – 2025. – T. 3. – №. 12.
- Pulatov D., Akbarova X., Mirzayeva D. "MENING MAKTABIM" LOYIHASINI OMMALASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI //MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT. – 2025. – T. 3. – №. 12.
- Pulatov D., Khamidov H. Citizen participation in spending budget funds in Uzbekistan //Asian Journal of Research in Business Economics and Management. – 2022. – T. 12. – №. 4. – C. 10-17.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>